

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SOBIROVA LAYLO BAXROMOVNA

**KO‘ZI OJIZ VA ZAIF KO‘RUVCHI SHAXSLARNI GOLBOL SPORT
TURIGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Sobirova Laylo Bahromovna

Zaif ko‘ruvchi va ko‘zi ojiz shaxslarni golbol sport turiga tayyorlashning metodologik asoslari.....3

Собирова Лайло Бахромовна

Методологические основы подготовки слабовидящих и незрячих к спортивному голболу.....33

Sobirova Laylo Bakhramovna

Methodological bases of preparing visually impaired and blind people for goalball sports.....66

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SOBIROVA LAYLO BAXROMOVNA

**KO‘ZI OJIZ VA ZAIF KO‘RUVCHI SHAXSLARNI GOLBOL SPORT
TURIGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Ped412 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjsu.uz va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Matkarimov Rashid Masharipovich
pedagogika fanlari doktori (DSc) professor

Rasmiy opponentlar: To'xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Umarov Djamshid Xasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc) professor

Nurillayeva Nargiza Muxtarxanovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "29" noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz e-mail: jtsu@uzdjsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "B" binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0029 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "17" noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil "17" noyabr da 2 raqamli reyestr bayonnomasi)



O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rais o'rinbosari, p.f.d., (DSc), dotsent

L.Z.Xolmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d., (PhD), dotsent

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslarni paralimpiya sport turlariga yo‘naltirish, tanlab olish, saralash hamda mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazishning zamonaviy yo‘nalishlarini izlab topish, tayyorgarlikning turli bosqichlarida yuklamalarni optimallashtirish talabini qo‘ymoqda. Shu bilan birga, golbol rivojlanib kelayotgan paralimpiya sport turlaridan biri hisoblanib, ushbu sport turini rivojlantirish orqali nafaqat ommaviylikni ta‘minlash, balki xalqaro sport musobaqalarida yangi marralarni qo‘lga kiritish imkoniyati bilan belgilanmoqda. Shu sababli ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarni golbol sport turida tayyorgarlik tizimining har bir bosqichida mashg‘ulotlar jarayonini o‘z vaqtida va sifatli boshqarish uslubiyatini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Jahonda sog‘lom sportchilardan farqli o‘laroq, ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarning mashg‘ulot va musobaqa ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun harakat faolligini oshirishga, o‘yin faoliyatida yuqori barqarorlikni saqlab turishga, murakkab harakatlarni katta amplitudada bajarishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bir qancha ilmiy tadqiqotlarda mashg‘ulot rejasiga muvofiq vosita va usullarni ishlab chiqish, harakat faolligini oshirish, psixologik (diqqat, aniqlik) xususiyatlar, shug‘illanuvchilar reaksiyalarini rivojlantirish hamda oraliq masofani, to‘p yo‘nalishi va sheriklarni xis qilish imkoniyatlarini yaxshilash keng ko‘lamda o‘rganganligiga qaramasdan, zaif ko‘ruvchi va ko‘zi ojiz shaxslarni golbol sport turiga tayyorlashning metodologik asoslarini yaratish tizimi yetarlicha ochib berilmagan.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni, xususan, olimpiya sport turlari bilan bir qatorda, paralimpiya dasturiga kiritilgan sport turlarini ham rivojlantirish hamda ommaviylashtirishga alohida e‘tibor qaratilib, keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. “Parasport bo‘yicha qobiliyatli yosh sportchilarni aniqlash hamda ular orasidan xalqaro sport maydonlarida munosib qatnashishni ta‘minlashga qodir bo‘lgan professional sportchilarni tayyorlash mahorati va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy hamda samarali o‘qitish dasturlari va usullarini joriy etish”¹ borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirda, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslarni davolashga, kam harakatli mushak faoliyatini faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham turlicha ko‘rinish olmoqda. Ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarni nozologiyasidan kelib chiqib sport turlariga, xususan, golbol sport turiga saralash hamda musobaqalarga tayyorlash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mashg‘ulot vositalari va yuklamalari optimal nisbatlarini tadqiq qilish hamda mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish vazifasi soha olimlari oldida turgan asosiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Golbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga maxsus mashqlar, nazorat me‘yorlarini kiritish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 599-son “O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

ularning hajmini optimallashtirish metodologiyasini ishlab chiqish hamda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama tayyorlash, hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PF-5114-son «Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5279-son «Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» va 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5281-son «2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida»gi Farmonlari, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 19-apreldagi PQ-209-son «Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi VMQ-599-son «O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda adaptiv jismoniy tarbiya va paralimpiya sportini ommalashtirish sohasidagi bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol sport turiga tayyorlash muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida, xususan: Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti [Rossiya Fedratsiyasi, Moskva sh.], Portu universiteti [Portugaliya Respublikasi.], Ko'zi ojizlar milliy qirollik kolleji [AQSh.], Sao Poula universiteti [Brazilya, Janubiy Amerika], Santa Catarina adaptiv sport universiteti [Brazilya], JOHN universitetida [Buyuk Biritaniya.]² ilg'or tajribalar olib borilmoqda.

Xorijda nashr qilingan ilmiy va ilmiy-uslubiy manbaalarni tahliliga ko'ra, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni golbol sport turiga tayyorlash metodologiyasi mashg'ulot yuklamalarini ko'rish darajasi va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlaridan kelib chiqib taqsimlash hisobiga mashg'ulot uslubiyati takomillashtirilgan, natijada golbol sport mashg'ulotlarida qo'llaniladigan

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi saytlar bazasida amalga oshirilgan:<https://www.sportedu.ru/>;<https://www.up.pt/portal/en/>;<https://hmong.ru/>;<https://www5.usp.br/english/institutional/>;<https://www.unipage.net/ru/>;<https://www.educationindex.ru/>.

korreksion va maxsus vositalardan tashkil topgan dastur ishlab chiqilgan [Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti, Rossiya Fedratsiyasi], ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning golbol mashg'ulot rejaları ishlab chiqilgan, natijada golbol sport turiga o'rgatish uslubiyati vazifalar ketma-ketligi va fazalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali takomillashtirilgan [Portu universiteti, Portugaliya Respublikasi.]; ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan golbol mashg'ulot usullari amaliyotga joriy qilingan, natijada umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik - jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini qo'llash asosida takomillashtirilgan [Sao Poula universiteti Brazilya, Janubiy amerika]; birinchi va ikkinchi bosqich talabalari uchun Xalqaro golbol sport dasturi ishlab chiqilgan, natijada mutaxassislar tayyorlash texnologiyasi, jahon tajribasini o'rgangan holda, sportchilar tayyorlash tizimining zamonaviy sport amaliyotiga joriy qilingan [Ko'zi ojizlar milliy qirollik kolleji, AQSh.]; golbolchilarning fiziologik hamda morfofunktsional ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasini tahlil qilish vosita va usullari ishlab chiqilgan, natijada musobaqalarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkoniyati kengaytirilgan [Santa Catarina adaptiv sport universiteti Brazilya].

Shu bilan birga, golbol sport turini rivojlantirish muammolari bo'yicha bugungi kunda xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, shuningdek, yetakchi ilmiy-sport markazlarida golbol mashg'ulotlarini takomillashtirish, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning sport mashg'ulot yuklamalarini tezkor boshqarish metodikasi bo'yicha, shuningdek, golbolchilarning tibbiy-biologik jihatdan tayyorlashning zaruriy manbalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining islohotlarini yangi bosqichini boshlab bergan Harakatlar strategiyasi va paralimpiya sohasini rivojlantirishga doir farmon hamda qarorlar mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Sport mashg'ulotlarining nogiron va imkoniyati cheklangan shaxslarni hayot faoliyatiga ijtimoiylashuvini tezlashtirish masalalari bo'yicha V.B.Aripova va M.X.Mirjamolovlar nogironlikni ma'lum turida sport mashg'ulotlariga moslashish nazariyasi bo'yicha E.A.O'rinboyev, N.K.Svetlichnaya, F.M.Murodov, paralimpiya sportida yuqori natijalarni qayd etish bo'yicha Sh.A.Abdiyev, Z.X.Palibayeva va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli konseptual izlanishlar olib borilgan³.

³ Арипова В.Б. Адаптив жисмоний тарбиянинг концептуал соҳасининг илмий методик йўналишлари. Магистрлик диссертацияси. Тошкент. 2012.-Б.56-57; Миржамолов М.Х., Ўринбоев Э.А. Адаптив жисмоний тарбия ва спорт. Ўқув қўлланма. Чирчиқ. 2020.Б.75-85; Светличная Н.К. Адаптивная физическая культура и спорт. Учебник. Тошкент. 2021.-С.124-141; Муродов Ф.М. Имконияти чекланган мактабгача ёшдаги болаларни жисмоний тарбия машғулотлари тузишда табақалаштирилган ёндошув механизми. Мақола.Чирчиқ 2022. Б.67-69. Абдиев Ш.А. Таянч-харакат аппарати шикастланган юқори малакали улоқтирувчиларнинг спорт машғулотларини оптималлаштириш. PhD диссертацияси. Чирчиқ. 2022. –Б.55-63; Палибаева З.Х. Паралимпия спортига янги технологиялар асосида адаптив-соғломлаштирувчи методларни ўзлаштириш ва жорий қилиш. PhD диссертацияси. Чирчиқ, 2022.–Б.86-94; Миржамолов М.Х. Олий таълимда паралимпия бўйича спортчилар тайёрлаш тизимини педагогик назорат қилишнинг илмий методик асослари. DSc диссертацияси. Чирчиқ, 2023.-Б.121-122.

M.A.Godik, Yu.V.Verxoshanskiy, V.M.Zatsiorskiy, kabi yetakchi soha mutaxassislarining ko‘plab ilmiy izlanishlarida mashg‘ulot yuklamalari hamda yuklamalar orasidagi dam olish oraliqlari o‘rtasidagi tizimli va tahliliy aloqani, shuningdek, ularning ketma-ketligini aniqlashga imkon beruvchi omillar to‘g‘risidagi manbalarni kengaytirish masalalari zaruriy nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida ochib berilgan⁴.

Yetakchi olimlar R.S.Salamov, F.A.Kerimov, M.N.Umarov, A.Abdullayev, Sh.X.Xankeldiyev, R.D.Xalmuxamedov, Sh.I.Allamuratov va boshqalar mashg‘ulot sikllari va yuklama me‘yorlari, sportda maxsus kuch tayyorgarligi asoslari, ko‘p yillik tayyorgarlik davrlarida yuqori malakali sportchilarning maxsus kuch tayyorgarligi, egiluvchanlikni rivojlantirish, sportchilarning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy sportdagi jarohatlar va ularni oldini olish muammolarini o‘rganishgan.⁵

Bir qator mualliflar T.S.Usmanxodjayeov, D.X.Umarov, I.A.Koshbaxtiyev, S.S.Tajibayev va boshqalar tomonidan sportchilarning kompleks tayyorgarligida tezkor-kuch sifatini rivojlantirishda harakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash, ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish to‘g‘risida ko‘plab amaliy tavsiyalar berib o‘tilgan. Shu bilan birga, sport amaliyotida turli xil vosita va usullarning maxsus ko‘rsatkichlari tarkibiy qismlarining o‘zgarishiga ta’siri hamda mashg‘ulot uslublarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari ilmiy-uslubiy ishlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo mamlakatlar olimlaridan paralimpiya sport turlarida mashg‘ulotlar o‘tkazish hamda sportchilarni yirik xalqaro musobaqalarga tayyorlashning muxim muammolari bo‘yicha L.P.Matveev, O.M.Shelkov, S.P.Evseyev, parasportchilarni psixologik nazorat qilish va baholash bo‘yicha A.K.Drozдовskiy, K.G.Korotkov, parasportchilarni tayyorlashda adaptiv imkoniyatlarini kompleks nazorat qilish bo‘yicha R.M.Boevskiy, ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor golbolchilarni sport faoliyatiga moslashtirish bo‘yicha M.D.Tuzlukova, ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha A.A.Baryayevlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.⁶

⁴ Годик М.А. Спортивная метрология. Учебник для ин-тов физической культуры // М.А.Годик. – М.: Физкультура и спорт, 1988.-С.192; Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания/В.М. Зациорский. 3-е изд. - М., Советский спорт, 2009. –С. 200; Верхошанский, Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте / Ю.В. Верхошанский. - М.: Советский спорт, 2013. – Б.216.

⁵ Саламов Р.С. Совершенствование образовательного процесса подготовки бакалавров по направлению «физическая культура и спорт // автореферат дис. ... доктора педагогических наук: 13.00.04. - Москва, 1995. –С. 56; Керимов Ф.А. Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. -Т., 2005. – Б.280; Абдуллаев А., Хонкельдиев Ш. Жисмоний тарбиюа назарияси ва услубияти. ЎзДЖТИ нашриёти. - Т., 2005.–Б.231; Халмухамедов Р.Д. Технология подготовки единоборцев на этапах годового цикла. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. - Т.: 2009. – С.300; Алламуратов Ш.И. Физиология ва спорт физиологияси. Дарслик. -Т.: 2016.-Б.48-56.

⁶ Матвеев, Л.П. Общауа теория спорта и ее прикладные аспекты: учебник для вузов физической культуры. 2010.-С.12-38; Шелков О.М. Система комплексного контролуа в процессе подготовки спортсменов–паралимпийцев / О.М.Шелков, А.Г.Абалуан // Адаптивная физическая культура. – 2011.–С.34-50; Евсеев, С.П. Адаптивный спорт для лиц интеллектуальными нарушениями: состояние и перспективы развития / С.П.Евсеев // Адаптивная физическая культура. 2012.–С.12-29; Дроздовский.А.К. Экспресс-оценка психофизиологического состояния спортсменов–паралимпийцев в период подготовки и участия в ответственных соревнованиях / А.К.Дроздовский, К.Г.Коротков, И.А.Громова // Адаптивная физическая

So‘nggi yillarda respublikamiz olimlari O.L.Erdonov - mini-futbol bo‘yicha yuqori malakali sportchi qizlarning tayyorgarligini boshqarish, O.J.Dadaboyev-dzyudochilarning ko‘p yillik tayyorgarligi konsepsiyasini nazariy asoslash, K.F.Bayazitov - og‘ir atletikachilarning ko‘p yillik tayyorgarligini boshqarishni takomillashtirish hamda R.M.Matkarimov tomonidan yuqori malakali og‘ir atletikachilarni ko‘p yillik tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari, M.S.Olimov - yugurish turlarida yengil atletikachi talabalarni tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari, N.T.To‘xtabayev - ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida balandlikka sakrovchilarning mashg‘ulotlar jarayonlarini kompleks nazorat qilish metodologiyasi, D.N.Raxmatova - 10-16 yoshli o‘smir sportchilarda chidamlilikni shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari, J.M.Ishtayev tomonidan ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-metodik yo‘llari (o‘rta maktab misolida), M.X.Mirjamolov - oliy ta‘limda paralimpiya bo‘yicha sportchilar tayyorlash tizimini pedagogik nazorat qilishning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asosan malakali sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik tizimini nazorat qilishga qaratilgan zamonaviy mezonlar takomillashtirilgan.

Tahlillarga ko‘ra, golbol sport turi o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslarning harakat faolligini oshirish yoki mashg‘ulotning turli davrlarida tayyorgarlik turlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv yuklama me‘yorlarini rejalashtirishga asoslangan ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslarni golbol sport mashg‘ulotlariga tayyorlashda maxsus vosita va usullarni qo‘llash uslubiyati yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining konsepsiyasi va istiqbol rejasidagi № V.1/4 “Sport turlarini (olimpiya, paralimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari) rivojlantirishga xizmat qiladigan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zaif ko‘ruvchi va ko‘zi ojiz shaxslarni golbol sport turiga tayyorlash modulini ishlab chiqish va uni tajribada asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslarni golbol sport turida mashg‘ulotlarning har bir mezotsiklida yetakchi sifatlarni rivojlantirish;

культура. 2012 –С.21-24; Коротков, К.Г. Инновационные методы контроля психологического состояния спортсменов-паралимпийцев: методическое пособие / К.Г.Коротков, А.К.Короткова, А.А.Банаян. – СПб: ФГБУ СПбНИИФК, 2016.-С.28-38.; Баевский Р.М. Оценка адаптационных возможностей организма и риск развития заболеваний / Р.М.Баевский, А.П.Берсенева – М.: Медицина, 2017.-С.34.; М.Д.Тузлукова Особенности адаптации к условиям спортивной деятельности паралимпийцев с нарушением зрения автореф. дис.ан.пед.наук. – Санкт-Петербург, 2018. – С.26.; А.А.Баруаев Реабилитационно-социализирующий потенциал спортивной деятельности лиц с нарушением зрения автореф. дис.ан.пед.наук. – Санкт-Петербург, 2018. – С.21.

golbol sport turida murakkab-koordinatsion yaxlit harakatlarni amalga oshirish uchun vaziyatga bog'liq holda harakatlanayotgan ob'yektga nisbatan reaksiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar modelini ishlab chiqish;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol mashg'ulotlarida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, jismoniy tayyorgarlik darajalarini va texnik harakatlarni uzviylikini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot texnologiyasini ishlab chiqish;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning musobaqa faoliyatidagi xatti-harakatlaridan kelib chiqib, vaximalilikni oldini olishga qaratilgan psixologik tayyorlash modelini takomillashtirish;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning individual taktik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan taktik tayyorlash modelini ishlab chiqish;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning golbol o'quv mashg'ulotlari jarayonida to'p otish texnikasiga o'rgatish uslubiyatini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Ixtisoslashgan 1-son kasb-hunar maktabi hamda Yakkasaroy tuman 1-son sport maktabidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar bilan olib boriladigan golbol o'quv mashg'ulotlari jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar bilan olib boriladigan golbol mashg'ulotlarida maxsus mashqlar majmuyi va uni qo'llash uslubiyati, tiklovchi vositalarning mushaklarga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilish asosida pedagogik nazorat qilishni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, antropometriya, pulsometriya, "Comfort-plus DM 2100" elektromassaj (qo'l va oyoq mushak faoliyatini qayta tiklovchi) uskunasi, mashg'ulot jarayonining tahlili, pedagogik tajriba, matematik-statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol sport turi mashg'ulotlarida har bir mezotsiklning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan tayyorgarlikning umumiy (aerob yo'nalishidagi yugurish va stretching), maxsus (yetakchi jismoniy sifatlar), texnik (hujum), taktik (himoya), musobaqa oldi (tabaqalashtirilgan) vositalarini beshta metodik bloklarga singdirish hisobiga golbolchilarni maqsadli tayyorlash imkoniyati kengaytirilgan;

golbol sport turida murakkab-koordinatsion yaxlit harakatlarni amalga oshirish uchun vaziyatga bog'liq holda harakatlanayotgan ob'yektga nisbatan reaksiya ko'rsatish aniqligi va reaksiya vaqtini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar modeliga texnik harakatlarni kiritish hisobiga o'yin sur'atini samarali hal qilish imkoniyati optimallashtirilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol mashg'ulotlarida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tashxislash, jismoniy tayyorgarlik darajalarini baholash va texnik harakatlarni amalga oshirishda uzviylikini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot texnologiyasidagi maqsad-model, tashxis-diagnostika, baholash va bashorat qilish, psixologik-xususiyat, tahlil-analiktika komponentlarini takomillashtirish hisobiga golbolchilarni musobaqalarga variativ tayyorlash imkoniyati kengaytirilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning musobaqa faoliyatidagi xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda, o'z-o'zini boshqarishda vaximalilikni oldini olishga qaratilgan psixologik tayyorlash modeliga sensomotorik va intellektual faoliyatni rivojlantiruvchi operativ hujum qilish turlarini mashg'ulotlar jarayoniga kiritish hisobiga golbolchilarni start oldi psixologik holatini optimal saqlab turish imkoniyati kengaytirilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning individual taktik harakatlarini rivojlantirish uchun to'psiz va to'p bilan aylanma usullarda uchburchak, zinamazina hamda to'g'ri chizikli pozitsion hujumga qaratilgan interaktiv taktik rejalarini mashg'ulotlar jarayoniga kiritish hisobiga taktik tayyorlash modeli takomillashtirilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning aylanib to'p otish texnikasini o'rgatishda golbol sport turi vositalari asosida to'pni tutish, aylanishga tayyorlanish, aylanish va oxirgi kuch berishga tayyorlanish, oxirgi kuch berish fazalar ketma-ketligini mashg'ulotlar jarayoniga kiritish hisobiga turli xil sharoitlarda to'p otish texnikasini o'rgatish uslubiyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning funksional, jismoniy tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari asosida golbol mashg'ulotlarini tashkil etishda maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

o'quv mashg'ulot bosqichidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni harakat faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar majmuasini qo'llash orqali golbolchilarning jismoniy rivojlanish darajasini yuqori sifatga ko'tarishga erishilgan;

golbol sport turi bo'yicha ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni musobaqalarda yuqori natijaga erishish imkoniyati o'rganilib, o'quv-mashg'ulot guruhiga mo'ljallangan yillik tayyorgarlik rejasi ishlab chiqilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi golbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatadigan vosita va usullarni qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondashuv, adaptiv jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi chet el hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tahlil hamda tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentivligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, tadqiqot jarayonida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar golbol sport turi bo'yicha ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning o'quv mashg'ulot jarayonlarini tashkil qilish va o'tkazish, harakat faolligini oshirish muammolariga taalluqli adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti fani mazmunini boyitishi hamda kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslar bilan olib boriladigan golbol mashg'ulotlarini takomillashtirishda, tayyorgarlikning turli bosqichlarida golbol mashg'ulotlarini tashkil qilishda, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqishda va murabbiylarning kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol sport mashg'ulotlariga tayyorlashda ishlab chiqilgan model va unda qo'llanilgan vosita hamda usullar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol sport turi mashg'ulotlarida har bir mezotsiklning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan tayyorgarlikning umumiy (aerob yo'nalishidagi yugurish va stretching), maxsus (yetakchi jismoniy sifatlar), texnik (hujum), taktik (himoya), musobaqa oldi (tabaqalashtirilgan) vositalarni beshta metodik bloklarga singdirish bo'yicha taklif va tavsiyalar «Adaptiv va sog'lomlashtirish jismoniy tarbiyasi» nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'iga asosan 356/7-140 raqamli guvohnoma). Natijada, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi golbolchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 18 % ga yaxshilangan;

golbol sport turida murakkab-koordinatsion yaxlit harakatlarni amalga oshirish uchun vaziyatga bog'liq holda harakatlanayotgan obyektga nisbatan reaksiya ko'rsatish aniqligi va reaksiya vaqtini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar modeliga texnik harakatlarni kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar Ixtisoslashgan 1-son kasb-hunar maktabi ko'rish qobilatida nuqsoni bor shaxslarining golbol mashg'ulotlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023- yil 7-apreldagi 04-01/04/20/3152-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni reaksiyani baholash ko'rsatkichlari umumiy hisobda 16 % ga yaxshilanishiga erishilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol mashg'ulotlarida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tashxislash, jismoniy tayyorgarlik darajalarini baholash va texnik harakatlarni amalga oshirishda uzviylikini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot texnologiyasidagi maqsad-model, tashxis-diagnostika, baholash va bashorat qilish, psixologik xususiyat, tahlil-analiktika komponentlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar «Adaptiv va sog'lomlashtirish jismoniy tarbiyasi» nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'iga asosan 356/7-140 raqamli guvohnoma). Natijada, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning golbol sport turiga saralash hamda tayyorlash tendensiyalari 14 % ga yaxshilangan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning musobaqa faoliyatidagi xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda, o'z-o'zini boshqarishda vaximalilikni oldini olishga qaratilgan psixologik tayyorlash modeliga sensomotorik va intellektual faoliyatni rivojlantiruvchi operativ hujum qilish turlarini mashg'ulotlar jarayoniga kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar Yakkasaroy tumani 1-son sport maktabi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning golbol mashg'ulotlari jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil

7- apreldagi 04-01/04/20/3152-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi golbolbolchilarning start oldi psixologik holati 20 % ga yaxshilanishiga erishilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning individual taktik harakatlarini rivojlantirish uchun to'psiz va to'p bilan aylanma usullarda uchburchak, zinamazinama hamda to'g'ri chiziqli pozitsion hujumga qaratilgan interaktiv taktik rejalar bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston golbol milliy terma jamoasining golbol mashg'ulotlari jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 7-apreldagi 04-01/04/20/3152-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv-mashg'ulot guruhidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni taktik tayyorgarligi umumiy hisobda 18 % ga oshirishga erishilgan;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarning aylanib to'p otish texnikasini o'rgatishda golbol sport turi vositalari asosida to'pni tutish, aylanishga tayyorlanish, aylanish va oxirgi kuch berishga tayyorlanish, oxirgi kuch berish fazalar ketma-ketligi bo'yicha taklif va tavsiyalar 1-son kasb-hunar maktabning ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar golbol mashg'ulotlari jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 7-apreldagi 04-01/04/20/3152-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi golbolchilarni to'p otish texnikasiga o'rgatish asosida mashg'ulotlarni takomillashtirish uslubi umumiy hisobda 16 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta darslik, 1 monografiya, O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, beshta bobdan iborat. 237 sahifa matn, 27 ta rasm, 15 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarini ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini joriy qilinishi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol sport turiga tayyorlash muammosini o'rganilganlik holati va uning metodologik**

asoslari” deb nomlangan birinchi bobida, jahonda va O‘zbekistonda golbol sport turi bo‘yicha sportchilar tayyorlashning rivojlanish bosqichlari, paralimpiya sport turlarida yillik tayyorgarlikni davriylashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

L.P.Mulyar, A.Yu.Maksimenkolarning ko‘p yillik tadqiqotlarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni sport o‘yinlari turlariga saralashda seleksiya jarayonlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar maktab o‘qituvchilariga ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash uslubiyatini joriy qilishgan.

Yu.A.Shipilov, V.A. Bajenov, S.A.Kalesovlarning ko‘p yillik tadqiqotlarida ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarni jamoaviy sport turlari, jumladan golbol sport turiga tayyorlashda, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi sportchilarni funksional, jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligida qo‘llaniladigan vositalarni qo‘llash usullari hamda yuklamalarni me‘yorlash bo‘yicha izlanishlar olib borilgan.


Shuningdek, yurtimizda parasport turlarini rivojlantirish yo‘lida golbol sport turining o‘rni, adaptiv jismoniy tarbiya va sport tizimidagi tutgan ahamiyati keltirilgan. Golbol mashg‘ulot jarayonlarida qo‘llaniladigan vosita va usullar, darvozaga to‘p otish texnikasi va usullari ham ochib berilgan bo‘lib, keyingi mashg‘ulot jarayonlarida mashg‘ulot yuklamalari hajmi, ularning bajarilish shiddatlari to‘g‘risidagi mahalliy va xorijiy olimlarning fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Golbol mashg‘ulot jarayonlarida qo‘llanilgan vosita va usullar, to‘p otish texnikasi, tayyorgarlik bosqichlariga tayyorgarlik turlarini rejalashtirish va boshqarish yo‘llari tanlangan mavzuga mos ravishda o‘rganib chiqilganligi ilmiy asosda yoritilgan.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda golbol mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida anketa so‘rovnoma tahlillari, golbol sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning psixologik holati ko‘rsatkichlari, O‘zbekistonda golbol sport turini ommalashtirish orqali ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarning harakat faolligini rivojlantirish yo‘llari, golbol sport turi mashg‘ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish usullari yoritilgan.

Jamoadagi psixologik iqlimni shakllantirishda sportchilar o‘rtasida ularning faoliyati va muloqotlari jarayonida yuzaga keladigan shaxsiy munosabatlar tizimi ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslar parasport turlaridagi vosita va usullarni idrok qilib, san‘at darajasida bajarishda emotsional holatlarni bartaraf etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda asosan golbol sport turi bilan shug‘ullanuvchilarni psixologik tayyorgarligiga alohida e‘tibor qaratish lozim (1-rasmga qarang).

Golbolchilarni psixologik tayyorlash modeli psixik sifatlar va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishning tabiiy jarayonlarini tezlashtirishga ko‘maklashadi.

Psixologik tayyorgarlikning usul va vositalarini qo'llash sportchida mustaqil ravishda o'z irodasini tarbiyalash, faol ravishda takomillashib borish tuyg'ularini shakllantirib, uni musobaqalashuv faoliyatining ekstremal sharoitlarida o'z psixik holatini ongli ravishda boshqarishga o'rgatadi.



1-rasm. Golbolchilarni psixologik tayyorlash modeli.

Golbolchilarni psixik holatini motivatsiyalar va vahimalilik natijalari perpendikulyar chiziqlarning kesishuvi o'ziga hos kvadrat yuzasida sodir bo'lib, ushbu kvadrat sinovga jalb etilgan shaxsning psixik holati turiga muvofiq bo'ladi.

Shtrixlangan zonada turli faoliyat turlari uchun optimal holatlar joylashgan (2-rasmga qarang). Golbol sport turi bilan shug'ullanuvchilarning motivatsiya holatida tadqiqotdan oldin vahimalilik, beparvolik, loqaydlik, xavotirlanish hislatlari kuzatildi. Jumladan, motivatsion holat shkalasi bo'yicha 16-19 ball aniqlandi. Golbol mashg'ulotlarida psixologik tayyorgarlikka ham e'tibor qaratildi. Motivatsion holat shkalasi bo'yicha 20-22 ball optimal hisoblansa, sinaluvchilarimiz ko'rsatkichlari 20-21 ballga yaxshilandi (2-rasmga qarang).

20	Vahimalilik		
14			
13	Qo'rquv, muvaffaqiyatsizlikni kutish	Xavotirlanish	Faoliyatga intilish
12			
11			
10			
9	Maqsadga intilishning sustligi	Optimum	Noreal natijalarni kutish
8			
7			
6	Loqaydlik, beparvolik	Parishonxotirlik	Beg'amlik
5			
	16 17 18 19	20 21 22	23 24 25 27 28

2-rasm. Psixik holatni tahlil etish ordinatlari tizimi.

Golbol hozirgi kunda endi ommalashayotgan va rivojlanayotgan sport turlaridan hisoblanadi. Respublikamizda yangi sport turi bo'lganligi sababli, sport mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'quv-mashg'ulot rejaları deyarli mavjud emas. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida, biz tomonimizdan golbol sport mashg'ulotlarida qo'llaniladigan namunaviy kunlik reja ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi (1-jadvalga qarang).

Golbol sport mashg'ulotlarida qo'llaniladigan na'munaviy kunlik rejasi

Mashg'ulot qismi	Meyori (Vaqt)	Mazmuni	Tashkiliy uslubiy ko'rsatmalar
Kirish	5 daq.	Salomlashish, psixologik holatini bilish, o'quv-mashg'ulot vazifalarini tushintirish	Safda turganda muvozanat saqlashga e'tibor berish
Tayyorgarlik	30 daq.	1. UJT majmuasi 1. Saflanish vazifalarni tushintirish; 2. Aerobik yugurish (sherik bilan); 3. Stretching mashqlari; 4. URM mashqlari; 5. Yugurish mashqlari (yetakchi bilan)	Mashqlarni bajarishda ishtirok etadigan mushaklarni qizdirish va organizmni asosiy qismga tayyorlash
Asosiy	30 daq.	2. MJT majmuasi - kuch va kuch-chidamlilikni rivojlantirish mashqlari; - tezkor-kuch va tezlik chidamlilik sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar.	Shug'illanuvchilarda aniqlik va sezgini rivojlantirishga e'tibor qaratish.
	25 daq.	3. Texnik tayyorgarlik: - yiqish harakatlarini joyda turib bajarish; - o'ng va chap tomonga yiqilishlarni bajarish; - vaqtga qarab o'z zonasiga yiqilish harakatlarini bajarish.	Mashqlarni bajarish texnikasi hamda diqqatni rivojlantirishga e'tibor qaratish
	15 daq.	4. Taktik tayyorgarlik: - to'pni aniq otish va sakrab turgan to'plar bilan bajariladigan yangi taktik rejalarni o'rganish.	Diqqat bilan to'p ovozidan uni yo'nalishiga qarab harakatlarni mustaqil bajarish
Yakuniy	5-10 daq.	1. Nafas olish, dam olish va tiklovchi mashqlarni qo'llash. 2. Korreksion mashqlari. 3. Saflanish.	Uy sharoitida maxsus mashqlarni bajarish

Izoh: Ushbu jadvalda integratsion mashg'ulotlar mazmuni keltirilgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, golbol sport turi mashg'ulotlarini tashkil etishda namunaviy kunlik rejada aerob yugurish, stretching, korreksion hamda tiklovchi vositalarning mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilishi, golbolchilarning kuch, kuch chidamliligi, tezkor kuch, tezkor chidamlilik sifatlarini rivojlantirishda hamda ko'rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslarni harakat faolligining oshishi, aniqlik, masofani xis qilish, sezgisining shakllanishida ko'proq samara beradi.

Dissertatsiya ishining **“Golbolchilar mashg'ulotlarining jismoniy va funksional ko'rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida golbolchilarning antropometrik ko'rsatkichlari darajasi va uning sport natijalariga ta'siri, golbol sport turi bilan shug'illanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish samaradorligi, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarda kuch, tezkor kuch, kuch chidamliligi, koordinatsiya va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda maxsus vositalar hajmi va dam olish intervallari hamda funksional holatidagi o'zgarish ko'rsatkichlari o'rganilgan. Shuningdek, sportchilarning mashg'ulot va musobaqa faoliyatida jismoniy tayyorgarlik natijalari bayon qilingan.

O'quv-mashg'ulot bosqichidagi golbolchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun reaksiya vaqti va vaziyatga qarab texnik harakatlarining rivojlanish modeli ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

Golbolchilarni jismoniy sifatlarini aniqlash uchun reaksiya vaqti va vaziyatga bog'liq holda qo'l hamda oyoqlarning texnik harakatlarini rivojlanish modeli

Jis.sifatlar va reaksiyani baholash	Maxsus xususiyatlar, qobiliyatlarning namoyon bo'lish omillari	Mezonlar, testlar, uslubiyatlar
Tezkorlik	Harakatlanish tezligi, reaktivlik	Turgan joyida tizzalarni ko'tarib 30 soniya davomida yugurish (marta)
		2x2 to'rtburchak maydonda sakrash (1 daqiqa davomida)
		10 soniya davomida o'tirib-turish (marta)
		2x2 to'rtburchak maydonda yugurish (1 daqiqa davomida)
Chaqqonlik	Harakatlanish, chaqqonlik reaktivlik. Harakatlanayotgan obyekt (to'p)ga nisbatan reaksiya	Qisqa diagonal bo'ylab yo'nalgan to'pni qabul qilish va qaytarish (10 soniya davomida)
Kuch	To'pni bosh orqasidan, to'pni pasdan ikki qo'llab oldinga, yuqoriga uloqtirish	To'ldirma to'pni uloqtirish (m)
